

MULOQOT OLAMI. MULOQOTNING TARKIBIY QISMLARI

Allayorova Nilufar Yaxshinorovna

Zarmed Universiteti

E-mail: nilufarallayarova76@gmail.com

Rustamova Sabrina Dilshodovna

Zarmed Universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada muloqotning mohiyati va uning tarkibiy qismlari batafsil ko'rib chiqiladi. Muloqotning inson hayotidagi o'rni, uning jamiyatdagi ahamiyati ochib beriladi. Muloqotning verbal va noverbal turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muloqot (xabar yetkazish, aloqa o'rnatish, suhbatlashish, kommunikatsiya), so'zlovchi(adresant, kommunikator), tinglovchi (adresat, kommunikant), ichki, tashqi ta'sir birliklari, fatik (mulozamat, manzirat) muloqot, dialog, monolog, nolisoniy birliklar.

Sotsiolingvistika – tilning jamiyatdagi o'rni va uning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini o'rganuvchi fandır. U muloqot olamining ijtimoiy jihatlarini, tilning turli guruhlar va qatlamlar tomonidan qo'llanilishini, shuningdek, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qiladi.

Muloqot [a.Uchrashish, ko'rishish; qabul qilish] *esk. kt. ayn. uchrashuv; musohaba.* Muloqot tushunchasi tilshunoslikka oid manbalarda kommunikatsiya termini bilan yuritiladi: "Kommunikatsiya (lot. communicatio – xabar, aloqa). Biror mazmunning til vositalari bilan berilishi, xabar qilinishi" degan ma'noni bildirib, so'zlovchining tinglovchiga axborot yetkazishidir.

Muloqot olami deganda muloqot jarayoni(vaqti, vaziyat, holat) bu jarayonda ishtirok etuvchi so'zlovchi(yoki so'zlovchilar) va tinglovchi(yoki tinglovchilar), ularning madaniy saviyasi, millati, jinsi, yoshi, mavqeyi, kasb-kori kabilar tushuniladi. Har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi tarkibiy qism sifatida, albatta, ishtirok etadi. Muloqot jarayoni o'rganilgan ishlarda so'zlovchi adresant, kommunikator deb, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, ya'ni tinglovchi adresat, kommunikant deb yuritiladi. So'zlovchi va tinglovchilar o'rtasida yuzma-yuz muloqot bevosita muloqot bo'lsa, xat, telefon, telegramma, internet vositalari orqali muloqot bivosita sanaladi. Muloqot jarayoniga ta'sir etuvchi omillar ham mavjud. S.Mo'minovning tadqiqot ishida muloqotga bilvosita ta'sir etuvchi birliklar ikki guruhga: ichki ta'sir birliklari (millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari) va tashqi ta'sir birliklari (muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy muhit)ga ajratilib tahlil etilgan.

Muloqot turlari odatda rasmiy va norasmiy ko'rinishlarga ega. Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega, davlat va jamiyat manfaatini ko'zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turi sanaladi. Norasmiy muloqot shaxslararo o'zaro muloqot jarayonida o'zini qiziqtirgan u yoki bu ma'lumotga ega bo'lishdir.

Muloqotga kirishishda faqat so'zlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim rol o'ynaydi. Shaxslar muloqotga kirishar ekan, muloqot o'zida uchta jihatni qamrab oladi: 1) kommunikativ (axborot berish); 2)interaktiv (o'zaro birgalikdagi harakat qilish) 3)perseptiv (o'zaro birgalikda idrok qilish). Muloqotda nutq muhim rol o'ynaydi, ayniqsa uning ravonligi, terminlarni yaxshi va o'z joyida to'g'ri ishlatilishi va hokazolar. Muloqotda informatsiya beruvchi, informatsiya qabul qiluvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik yuzaga keladi. Har qanday muloqotning

biron-bir maqsadi bo‘ladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs, muloqotning yakuniy holatiga qarab turlicha, xulosa chiqarishi mumkin, ya’ni ijobiy, salbiy xulosa bo‘lishi mumkin. Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Indivud hayotida muloqotning vazifalari turlicha. Shu boisdan muloqotning quyidagi vazifalarini ko‘rsatishimiz mumkin.

Muloqotning psixologik vazifalari: informatsion, regulyativ, signal, nazorat, tarbiya. Informatsion vazifa – bu axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir. Regulyativ vazifa – muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatni tashkil qilishdan iborat. Signal vazifasi – bu vazifaning ko‘magida biz muhim ahamiyatga ega voqealar, hodisalar haqidagi signalni qabul qilamiz. Nazorat vazifasi – bu vazifa ko‘magida axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi.

Tarbiya qilish vazifasi – muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni bo‘lib nihoyat darajada muhim omil hisoblanadi. Nutqiy (belgilar tizimi sifatida nutqdan foydalaniladi) va nutqsiz (turli nutqsiz belgilar tizimidan foydalaniladi) muloqot vositalari farqlanadi. Nutqiy muloqot vositasi eng universal aloqa vositasidir. Nutqning yozma va og‘zaki turlari farqlanadi. Og‘zaki nutq asosan dialogik va monologik nutqlarga bo‘linadi. Dialog – biron masalani birgalikda muhokama qilayotgan va hal etayotgan suhbatdoshlarning so‘zlashuvi. Monolog kishining o‘z-o‘ziga gapirishi bo‘lib, aslida bu muloqotda ham nutq tinglovchiga qaratiladi. Masalan, sahna asarlarida so‘zlovchi monologini barcha tinglovchilar eshitadi.

Bundan tashqari muloqot jarayonida nutq shakllaridan tashqari, nolisoniy vositalar ishtirok etadi. Ushbu vositalarga imo-ishora va mimika kiradi. Mimika – yuzning muloqot paytidagi dinamik ifodasi. Imo-ishora – jamiyatda ishlab chiqilgan va ruhiy holatni ifodalaydigan harakat. Ularga qarab biz insonning biror-bir voqeaga, shaxsga, narsaga munosabati haqida xulosa qilamiz. Imo-ishora odamning istaklari, uning ahvolidan darak berishi mumkin.

Muloqotning kompozitsion bosqichlari. 1. Adresant faoliyati bosqichlari: 1. Salomlashish va murojaat bosqichi. 2. Tanishuv bosqichi. 3. Daromad bosqichi. 4. Muddao bosqichi. 5. Xotima va xayrlashuv bosqichi.

2. Adresat faoliyati bosqichlari: 1. Tinglash bosqichi. 2. Munosabat bildirish bosqichi.¹

Muloqotning boshlanishi barcha xalqlarda salomlashish va hol-ahvol so‘rashidan boshlanadi, faqat salomlashish usullari va ahvol so‘rash tarzi har xil bo‘ladi. Bu har bir xalqning o‘z xarakteridan, yashash tarzidan kelib chiqadi. Xalqimizda salomlashishga alohida e’tibor qaratiladi, muomala madaniyatini eng muhim qismlaridan hisoblanadi. Bizda begona kishilarga ham qarindosh-urug‘ (onaxon, onajon, otaxon, otajon, bobo, aka, uka, opa, singlim, to‘ga, amaki, xola) nomlarini aytib murojaat etish o‘ziga xos xususiyat sanaladi. Daromad esa so‘zlovchi o‘z maqsadini tinglovchiga ta’sirli, chiroyli yetkazish maqsadida, nutq samarasi yo‘lida gapni uzoqdan boshlashdir. Bizning xalqimiz nutqida, ayniqsa, norasmiy muloqotlarda gapning eng muhim asosiy tomoniga birdan o‘tilmaydi, birdan muddaoga o‘tish shoshilinch hollarda, ma’lum sabablarga ko‘ra ro‘y beradi (o‘shanda ham sababi aytiladi). “Muddao suhbatning mag‘zi hisoblanadi va asosiy fikr suhbatning ana shu qismida bildiriladi. Daromad qilingandan keyin aytiladigan *xullas kalom, gapning qisqasi, gapning po‘stkallasi shu, gap bunday* kabi jumlarlar to‘g‘ridan to‘g‘ri suhbatdoshlarni asosiy xulosani aytish bosqichiga olib kiradi”. Bu bosqich ham ifoda yo‘siniga ko‘ra mavzu, maqsad, yosh, mansab, jins kabilar nuqtayi nazaridan o‘ziga xos ko‘rinish olishi, turli xil nutqiy aktlar asosida tuzilishi mumkin.

¹ МўминовС. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан.доктори...дисс.автореф.–Тошкент, 2000. –Б.14.

Xayrlashuv bosqichida odatda *xayr, omon bo'ling, sog' bo'ling, salomat bo'ling, ko'rishguncha* kabi so'z va birikmalar ishtirok etsa-da, bu bosqich ham turli xalqlarda turlicha kechishi mumkin. Hatto bir millat ichida ham hududlarda xayrlashuv har xil amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari xayrlashish yosh, jins, muloqot holati, vaziyati bilan bog'liq tarzda kechishi mumkin. Masalan, aza marosimiga borganda, marosim tugagach, ayollar marhumning yaqinlariga *ko'rganlaringiz shu bo'lsin, xudo sizlarga sabr bersin, bu uyga endi to'ylarga kelaylik* deb xayrlashishadi. O'zbekona salomlashish va xayrlashishning ayrim ko'rinishlari "So'z qo'llash san'ati" risolasida keltirilgan: "Ko'pgina tillarda (rus, ingliz, nemis, arab, fors va b.) uch bosqichli salomlashish odati mavjud. O'zbeklarda ertalab turganda ham, tushda yoki kechqurun uchrashganda ham "Assalom-u alaykum" deyilib, "Va alaykum assalom" javobi olinishi tomonlar ehtiyojini qondiradi. Xayrlashuv ikki shaxs o'rtasidagi oddiy munosabatdan tortib, murakkab marosimgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, inson har xil maqsad bilan ostona hatlab tashqariga o'tlanadi: birov oshxonaga, birov safarga, birov uzoq o'lkalar bo'ylab sayru sayohatga, birov jangga... Bunda ketuvchi nutqida *xayr, yaxshi qoling; ko'rishguncha, sog' bo'linglar, omon bo'linglar, salomat bo'linglar, yana qayta ko'rishguncha, sog'-omon bo'linglar, salomat bo'linglar, xo'sh denglar, alvido*; kuzatuvchi nutqida *xayr, yaxshi boring, yaxshi borib keling, safaringiz bexatar bo'lsin, oy borib omon keling, sog' borib, salomat keling, to'ling to'kilmang, oling oldirmang, oldingizdan oy chiqsin, orqangizdan kun chiqsin, oq yo'l, oq yo'l bo'lsin, xudoga topshirdik, ollohga topshirdik, tangriga topshirdik, o'zi soyabon bo'lsin, xudo yor bo'lsin, panohingiz xudoga, bir xudoga topshirdik, panoyi xudo, xudo hofiz (keying ikkisi shevada), qirq Chilton jilovdor bo'lsin, pirlar madadkor bo'lsin, payg'ambarlar yor bo'lsin, arvohlar yor bo'lsin, alvido* kabi vositalar qo'llaniladi". Gap shundaki bu "durdona"lar har qaysisining qo'llanish o'rni, vaqti, shart-sharoiti bo'lib, bu xayrlashuvchidan lisoniy malaka, nutqiy madaniyat, mantiqiy bilim, saviya, dunyoqarash, voqelikka e'tibor va e'tiqod kabilarni talab etadi. Mazkur risolada salomlashgandan keyingi bosqich so'rashuv jarayonida quyidagi lisoniy vositalardan foydalanilishi aytilgan: *tinchmisiz, omonmisiz, esonmisiz, eson-omonmisiz, tani-joningiz sog'mi, yaxshi keldingizmi, safar muborak, sayohat muborak, ziyorat qabul bo'lsin* va hk. Bunday so'roq gaplarga tasdiq gap shaklida javob berishdan ko'ra (Sog'-salomatmisiz? – Ha, sog'-salomatman shaklida) **rahmat, tashakkur, xudoga shukur, ollohga shukur** kabi vositalar bilan javob berish nutqiy me'yor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistika muloqot olamining ijtimoiy jihatlarini o'rganish orqali muloqotning samaradorligini oshirishga, turli guruhlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilashga va tilning ijtimoiy funksiyalarini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent: 2006. –B.635.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан.доктори...дисс.автореф.–Тошкент, 2000. –Б.8.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўз МЭ, 2002. – Б.64.
4. Karimov S. Nutq madaniyati va mutolaa san'ati. O'quv qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2020. –B.71.
5. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. –Термиз: "Жайхун", 1994. – Б.13-1